



Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



VOL. 1, ISSUE 4
The Journal of Academic
Research and Trends in
Educational Sciences

ISSN 2181-2675 www.ijournal.uz

LIFE AND SCIENTIFIC ACTIVITY OF KHOJA AHROR VALI

Qurbanova Farida Orifovna¹

Samarkand State University

KEYWORDS

saints, Rashahot, Baghdad,
educational, mystical, external,
internal, madrasa, Sayyid
Sharif Jurjani, Naqshbandiya
sect, Chaganiyan, Yakub
Charkhi

ABSTRACT

This article talks about the life and scientific activity of Khoja Ahror Vali.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.7233786

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Independent researcher of the department of historiography, source studies and historical research methods, Samarkand State University, Uzbekistan

XOJA AHROR VALIY HAYOTI VA ILMUY FAOLIYATI

KALIT SO'ZLAR:

avliyolar, «Rashahot»,
Bog'dod, ma'rifiy, irfoniy,
zohiriy, botiniy, madrasa,
Sayyid Sharif Jurjoniy,
Naqshbandiya tariqati,
Chag'oniyon, Ya'qub
Charxiy.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Xoja Ahror Valiy hayoti va ilmiy faoliyati haqida so'z yurutuilgan.

Musulmon dunyosining taniqli namyondasi Nosiriddin Ubaydulloh bin Mahmud ash-Shoshiy tarixda Xoja Ahor nomi bilan shuhrat qozongan. As-Safiy nomi bilan mashhur bo'lgan Husayn Vois Koshfiyning avliyolar hayotiga oid «Rashahotu aynil-hayoti» asarida yassaviylik tarixi bilan birga Naqshbandiy SHayx sifatida nom qozongan Xoja Ahror hayoti va faoliyati ilk marta bayon qilib berilgan. Asar XV asr ikkinchi yarmida ismi Naqshbandiy tariqatining gullab-yashnashi aloqador bo'lgan Xoja Ahrorning jamiyat hayotida tutgan o'rni va faoliyatini yoritib bergen asosiy manbalardir.

To'liq ismi Nasiriddin Ubaydulloh binni Mahmud ash-Shoshiy (1404-1490) bo'lmish Xoja Ahror nasl-nasabli shayxlar avlodigsha mansub bo'lgan tarixiy shaxsdir. Uning otabobolari qavm-qarindoshlari malum va mashhur diniy arboblar – islam targ'ibotchilari va tasavvuf g'oyalarini tarqatuvchi kishilar bo'lgan. «Rashahot» asari muallifi as-Safiy tomonidan Xoja Ahrorning shajarasi to'g'risidagi berilgan ma'lumotlariga e'tibor qaratgan bo'lgan eshon avlodlari orasida Toshkent va uning atrofida mashhur bo'lgan bir qator pir hamda so'fiylarning nomlari borligi ko'rish mumkin. Ular ijtimoiy jihatdan o'sha davrda o'ziga to'q tabaqa kishilar bo'lib, asosan dehqonchilik va savdo bilan shug'ullanганлар.[1] As-Safiy Xoja Ahronning ota tomonidan asli Bog'dodlik Xoja Muhammad an-Nomiy avlodidan ekanligini ta'kidlaydi.

Islomdagi shofiylik mazhabining taniqli olimi sanalgan imom Abu Bakr Muhammad binni Ismoil Qaffol Shoshiy kelguniga qadar Xoja Muhammad Bog'dod shahrida yashagan. Shayx Abu Bakr Qaffolning maqomatida aytilishicha, Xoja Muhammad bir yil g'oziy (din yo'lida jang qiluvchi) bo'lgan va Rum tomonlarga qilingan yarishlarda ishtirok etgan. Asar muallifning xabar berishicha u bir yil hajda bo'lgan va bir yil o'z viloyatida bo'lib shariatni o'rgangan hamda tariqat yo'lga kirgan. Xoja Muhammad piri Qaffol shoshiyiga murid tushganidan so'ng u bilan Bog'doddan Toshkentga kelgan.

«Rashahot» muallifning so'zlariga qaraganda, Xoja Ahror ona tomondan Shayx Umar Bog'istoniya borib bog'lanadi. «Rashahot»da qayd etilishicha, Umar Bog'istoniyaning to'ng'ich o'g'li mashhur shayx Xovandi Tohur bo'lib, u ruhoniy va aniq ilmlarda yuksak darajalarga erishgan. Shayx Xovandi Tohurning o'g'li Xo'ja Dovud bo'lgan. Xoja Ahrorning onasi Xoja Dovudga qondosh bo'lgan va Xoja Ahror shu tarzda shayx Xovundi Tohur (Shayxontohur)ga avlod sanaladi. Ular sayyidlardan bo'lib, Muhammad payg'ambarga avlod

hisoblangan.[2]

«Rashahot» muallifi asarda Xoja Dovudning Muhammad Porso bilan o'zaro aloqalari haqida ham yozadi. Muhammad Borso Andijon viloyatidan Samarqandga borayotganida o'z kishisini Toshkent yo'lidan Xo'ja Dovud huzuriga jo'natadi. SHundan so'ng as-Sofiy shaxy Umar Bog'istoniyning boshqa avlodlarini sanab o'tadi. Xoja Ahrorning amakisi Xoja Ibrohim Shoshiy o'z ta'siri bilan eshon hayotida muhim o'rin tutganligi diqqatga sazovordir. Keyinchalik Xoja Ahror amakisi o'z zamonasining bilimdon va aqlii kishisi bo'lganligini ta'kidlaydi.

As-Sofiy bu borada naiqlik kiritib, uni Samarqanddagi Abaki Temur madrasasida Sayyid Sharif Jurjoni bilan talim olganligi haqidagi malumotlarni ham keltiradi. Xoja Ahrorning katta bobosi Xoja Shahobiddin Shoshiy dehqonchilik va tijorat bilan shug'ullangan. Uning ikki farzandi bo'lib, ular Xoja Muhammad va Xoja Mahmudlardir. Xoja Ahror Xoja Mahmudning nabirasi bo'ladi. «Rashahot» muallifi Xoja Shahobiddin Shoshiy bilan bog'liq quyidagi voqeani bayon qiladi. O'limi yaqinligini schezgach, Xoja Shahobiddin o'zining barcha qarindoshlarini uning haqqiga yaratgandan rozilik so'rash uchun chaqirtiradi. Hamma farzand va nabiralar yig'iladilar. Xoja Shahobiddin ularning ham biriga so'nggi vasiyatini aytadi. Navbat Xoja Ahrorning onasiga kelganda mo'ysafid unga farzandini olib kelishini buyuradi. U vaqtda Ubaydulloh Ahror juda kichik bo'lib, uni xirqa (darveshlar kiyimi)ga o'rab olib keladilar. Xoja Shahobiddin nazari kichkina Ubaydullohga tushgan zahoti kuchli hayajonga tushadi. Ko'zlar yoshga to'lib, bolaning manglayiga qo'llarini tekkizganicha shunday deydi.

«Bu bola keljakda dunyoni egallaydi, shariatni tarqatadi, tarqatma rivoj beradi, hukmdorlar uning ahkomlarini bajaradilar. O'tgan barcha shayxlar ko'rsata olmagan karomatlarni ko'rsatadi».

Xoja Ahrorning otasi Xoja Mahmud Shoshiy bo'lib, eshon o'zining naqshbandiya tariqati ilmi va amaliyoti uchun o'ta muhim bo'lgan «Risolayi validiya» asarini unga bag'ishlagan.

(Xoja Ahror) Xojagon-Naqshbandiya oltin zanjirida 18-bo'lib muborak nomi zikr bo'lgan Xoja Ubaydulloh Ahror xijriy 806 yil muborak ramazon oyida (melodiy 1404 yil mart oyi) Toshkent yaqishidagi Bog'iston qishlog'ida tug'ilganyu Hayotining avvalida benihoya faqir bo'lgan Xoja Ubaydulloh Ahror hayotining oxirida behad ko'p mol dunyo egasiga aylangan. Bu boylik-tarixnavislar bunga alohida urg'u bergenlar – haddu hisobga sig'magan, shu jumladan Ali Safiy ham «Rashahot»da o'qiymiz:

«Maxfiy qolmasinki, hazrati eshorming molu mannolari va ziyo-u aqor va g'allayu ramalari va abidu maviyları ashobu amloklari haddu andozadan tashqari edi va hiytan hisob va doirai Sho'morlarin ziyod edi». Xoja Ahror madrasa ilmlaridan juda kam o'qigan edi. Ammo suhbatlaridagi ma'rifiy, irfoniy, zohiriylar va botiniy sirlarga nuktadallik g'oyat hayratlanarlik darajada baland edi. Ul zot «Biz shayxlik qilmadik; agar shayxlik qilsaydik, bu olamda boshqa shayxlarga murid qolmagan bo'lur edi (ya'ni barcha bizning muridimiz bo'lar edi). Bizga shohlar bilan munosabatda bo'lish yuklatildi» degan. Biroq shunga qaramay muridlari benihoya ko'p bo'lgan. Xoja Ahrorning mansabi hukumat lavozimlarida

bir o'rın yo'q edi, ammo o'z davrining podshohlari bu zotning majlisida, suhbati asnosida ul zotning haybatidan dahshat ichida o'tirar, peshonalaridan tinmay ter to'kilar edi.[3]

Va zamon podshohlari bu zot bilan birga bo'lgan damlarda Xoja Ubaydulloh Ahror otiga minmaguncha, otlariga minmay kutib turishar edi. Agar Xoja Ubaydulloh ahror piyoda bo'lsa, ortidan otlaridan tushib, piyoda ketishar edi.

As-Safiy va Abdulhayi al-Husayniy Xoja Ubaydulloh Ahrorning ota-bobolari shajarasini quyidagicha bayon qilgan: Hazrati Abu Bakr nasliga mansub bo'lgan Xoja Muhammad Nomiy al-Bog'dodiy - Xoja Shahobiddin SHoshiy -Xoja Mahmud Shoshiy - Xoja Ubaydulloh Ahror.

Xoja Ahrorning tarjimai holida yozishicha, o'spirinlik yillari Toshkentda yashagan paytlarida odamlardan o'zini uzoqroq olib yurgan, kechalari qabristonlarni kezib chiqqan hamda avliyolarning qabrlari oldida tun bo'yи mijja qoqmay chiqqan. Odamlar bilan so'zlashish unga malol kelardi, chunki ular uning o'z fikrlarini jamlash va mushohada qilishga xalaqt berishardi.

Bu davrda Xoja Ahror muloqot qiladigan kishilar doirasi tor bo'lib, u asosan darvesh va devonalar bilan bajonudil suhbatlashishni ma»qui ko'rар edi. Ayni paytda Xoja Ahror hayot tarzi Naqshbandiya sulukining ta'limotida asosiy aqidalardan hisoblangan «Xilvat dar anjumai» (anjumanda yolg'izlik) bilan belgilangan. So'fiylikning «Xilvat» aqidagi (yolg'izlik, tanholik) suluk amaliyoti tubdan o'zgartirib yuboradigan yana bir ma»no kasb etadi. Mana shu o'rinda Xoja Ahror Naqshbandiya tariqatini keyinroq, ya'ni Chag'oniyonda Ya'qub Charxiy bilan bo'lgan uchrashuvdan so'ng tanlagan emasmidi degan e'tiroz tug'ilishi mumkin. Aslida Xoja Ahrorning so'fiylikni muayyan aqida tamoyil va haqqa etishish yo'lini egallashida aniq bir sulukning nazariy-amaliy usullariga murojaat qilgan vaqt niqbiy mazmun kasb etadi. Negaki u awal Ya'qub Charxiydan saboq oladi, ammo keyinchalik uning oldiga shakllangan etuk so'fiy sifatida tashrif buyuradi. Shu bilan birgalikda Xoja Ahrorning sulolaviy va qarindoshlik jihatlarini ko'rsatuvchi shajarasi uning Naqshbandiya tariqatiga bevosita aloqasi borligidan guvohlik beradi. O'sha vaqlarda «Oilaviy munosabatlar - kishining u yoki bu sulukka bo'lishini avvalo aynan shu ko'rsatkichlar belgilar edi...».

O'tmishda mavjud bo'lgan barcha tariqatning asoschilari jumladan, Suhravardiyya, Chishtiyya, Qodiriyya, Yassaviyya, Naqshbandiya tariqatlarining rahnamolari yoki shu tariqatlarning yirik namoyondalari o'zlaridan asarlar yozib qoldirganlar. Xoja Ahror Vali ham Naqshbandiya tariqatining rivojiga ulkan hissa qo'shgan zotlardan biri bo'lib, u og'zaki targ'qibotgina olib bormay, balki risolalar ham ijod* qilgan. Ul zotning «Tabarruk risolalar»ga kiritilgan to'rtta risolasi hg'aqida qisqacha fikr yuritamiz.

1. Risolai validiyya («Otoga atalgan risola») Bu risola Xoja Ahrori Valiyning otasi Xoja Mahmudning xohishi bilan yozilgan. Ma'lumki, Xoja Mahmud o'z zamonasining bilimdon kishilaridan biri bo'lgan. U o'z umrini taqvo riyozat va halollik bilan o'tkazgan. O'zi tariqat yo'lida bo'lgan.

Xoja Mahmud o'z o'g'li Xoja Ahrorning kamolotga etganini ko'rgach, tariqatning nozik tomonlarini ochib beradigan bir risola yozib berishni iltimos qiladi. Bu haqda Xoja Ahrorning o'zi shunday yozadi: «... bu muxtasar risolaning yozilish sababi shuki bu faqirning

otasi menga bo'lgan ishonchi tufayli, bu faqirga amr qilib: «Bizga avliyolaming so'zlaridan bir narsa yozib berginki, unga amal qilish'va odamlar bilan hosil bo'lmaydigan ulug' maqomatlarga etishish va haqiqiy ilmlarni hosil qilishga sabab bo'lsin»... Bu faqir bu amrga bo'ysunishi o'ziga vojib deb biladi».

Bu risolaning to'rtta qo'lyozma nusxasi hozirda O'zRFA SHI fondida saqlanmoqda. Zahiriddin Muhammad Bobur bu risolani o'zbek tiliga she'riy tarjima qilgan. Bu tarjima keyinga yillarda Toshkentda ikki marta nashr etilgan.[4]

2. Risolai hamroiyya («Xo'rللار haqida risola»). Bu risola Xoja Ahror tomonidan shayx Shahobuddik Suhravadiyning xalifasi Shayx Abu Sa'id Abul Xayrning (Vaf. 1048 y.) bir ruboiysiga yozilgan sharxdir. Bu ruboiyga Xoja Ahrordan avval ham sharxlar yozilgan. Biroq bu sharxlar Xoja Ahrorni qoniqtirmagani uchun u ham ruboiyga sharx yozishga qaror qilgan.

Risolaning muallif davrida ko'chirilgan 507 raqamli nusxasi O'zR FA SHI fondida saqlanmoqda. Bu asarning 1899 yilda sharqshunos olim V.A.Jukovskiy tomonidan S.Peterburgda nashr ettirilgan nusxasi ham bor.

3. Firoqot ul-orifiyn («Ma'rifikat ahlining so'zlaridan parchalar»). Bu risola Xoja Ahrori Valiyning boshqa risolalariga nisbatan hajm jihatdan kattaroq va tariqat masalalarini ko'proq qamrab olishi bilan muhimroqdir. Risola ko'plab «Fiqra» (band yoki fasl)lardan iborat bo'lib, har bir fiqrada tasavvufga oid birorta masala tushuntiriladi. Ayniqsa unda «zikri dil»ga alohida o'rין berilgan. Bundan tashqari, Xojagon tariqati, Bahovuddin Naqshbandning yo'1-yo'riqlari, naqshbandiya tariqatida amal qilinishi zarur bo'lgan 11 ta qoidaga keng sharx berilgan. O'zR FA SHI fondidagi 507-raqamli qo'lzmada asarning muallif hayot paytida ko'chirilgan nusxasi saqlanmoqda.

4. Anfosi Nafisa («Nozik fikrlar»). Bu risolaga ham tariqat yo'lidiagi kishilarning amal qilishi zarur bo'lgan masalalamin gbayoniga bag'ishlangan. Unda muridning poklanishi, nafl ibodatlarini qay tariqa amalga oshishi, o'qiladigan duolar batafsil yoritilgan. Bu risola Hindistonda boshqa mutasavviflarning asarlari bilan birga nashr etilgan. Risolaning bita nusxasi O'zR FA SHI fondida saqlanmoqda.

Xoja Muhammad jarrohning o'g'li mavlono Ma'ruf shunday dedi: men Hirotdaedim. Xoja Mavlono ham bu shaharga keldi. SHahar akobirlari uni ko'rishga keldilar. Ular Xoja Mavlonon szlarida parshonlik borligini mushohada qildilar. Shundan so'ng odiga juda oz kishi borar edi. Oxiri amir CHaqmoq madrasasida yashadi. Uning oldiga kelgan odamga «Bularning hammasi o'sha shayxning (Xoja Ahror) karomati» deb aytdi: ey Xoja Mavlono siz shayx ul -islomsiz, Samarqand sohibisiz, ota bobolarining u shaharda izzatli va hurmatlidurlar. Umrining oxirida bunday parishonlik va xo'rlikka uchrashuvningiz o'sha shayxning karomati bo'lmay nima ham bo'lardi. Oqibatda Mavlono kasallika uchradi. Kasalligi vaqtida men (mavlono Ma'ruf) unga qarashib turardim. Bir kunihujrasiga kirsam, najosati ustida o'tirib qo'llari bilan uni titib barmoqlarini burniga keltirib, ey mavlono Ma'ruf, mushil (najosat) ning hidi yoqimli ekan, deganini eshitib, nafratim oshdi – da, hazrati eshon (Xoja Ahror) ning so'zlari xotiraga keldi. Ul hazrat «Xoja Mavlono jualday o'min» degan edilar. Darvoqe, shunday bo'ldi. Umrining oxirida mavlono Muammoiy uning oldiga kelganida, ko'zlarini ochib mavlono Muhammad Muammoiyga qarab, shunday dedi:

««Hurmatli Mavono Muhammad! Agar muhtaram Xoja Ubaydulloh (Xoja Ahror) ning ziiyoratiga borsangiz bizning gunohlarimizni aytib, uzrimizni ham etkazisangiz: nima qilgan bo'lsak, nafe – izzattalashlik va obro' orttirish uchun qilgan edik. Hammasidan voz kechdik. Karam qilsinlar – da bizning gunohlarimizni bag'ishlasinlar». Shunday dedida olamdan ko'z yumdi».

Mavlono Ma'rufning bu hikoyasini Muhammad Qozi Xoja Ahrorning kayfiyatları yaxshi bo'lgan bir vaqtida ul hazratga aytganida Xoja Ahror nihoyatda ta'sirlanib, Xoja Mavlondoning gunohlarini bag'ishlaganlar. Bu hikoya hayotiy va voqeyi bo'lib, unda, qatnashuvchi va hikoya qiluvchilar ham voqealarning bevosita guvohi bo'lgan tarixiy shaxslardir. Shuning uchun unga ishonmaslik va yoki e'tibor bermaslik mumkin emas. [5]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Каримов Э. Хўжа Аҳрор Вали. – Т.: Маънавият, 2003. – 11-бет.
2. Каримов Э. Хўжа Аҳрор Вали. – Т.: Маънавият, 2003. – 13-бет.
3. Umrzoqov B. «Imom Al-Buxoriy saboqlari» (jurnal) 2/2004. – 104-bet.
4. Hasaniy M., Umrzoq B. Tabarruk risolalar. – T., 2004. – 15-bet.
5. Валихўжаев Б. Хўжа Аҳрор Вали. Самарқанд, 1993. – 27-бет